

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINING HUQUQIY MEXANIZMLARI

Mo'sajonov Husanboy Farhodjon o'g'li

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti magistranti

Email: mosajonovhusanboy02@gmail.com

Tel: +998 50 002 04 43

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20524396>

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvining huquqiy asoslari, mexanizmlari hamda ularni takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ekologik siyosatni amalga oshirishda davlat organlarining o'rni, ularning vazifalari, funksiyalari va vakolatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, ekologik siyosat, davlat boshqaruvi, huquqiy mexanizm, ekologik nazorat, barqaror rivojlanish.

Annotation

This article analyzes the legal foundations and mechanisms of state administration in the field of environmental protection in the Republic of Uzbekistan. It also highlights the role, functions, and powers of state bodies in implementing environmental policy, as well as directions for improving their activities. The article provides recommendations for developing existing legal mechanisms and ensuring sustainable environmental governance.

Keywords: environment, environmental policy, state administration, legal mechanism, environmental control, sustainable development.

Аннотация

В данной статье анализируются правовые основы и механизмы государственного управления в сфере охраны окружающей среды в Республике Узбекистан. Также раскрываются роль, функции и полномочия государственных органов в реализации экологической политики, а также направления совершенствования их деятельности. В статье представлены предложения по развитию существующих правовых механизмов и обеспечению устойчивого экологического управления.

Ключевые слова: окружающая среда, экологическая политика, государственное управление, правовой механизм, экологический контроль, устойчивое развитие.

Kirish

Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish zamonaviy davlatlar siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanish davlat boshqaruvi tizimining ajralmas qismiga aylangan. Shu bois, ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvining huquqiy mexanizmlarini tahlil etish, ularning samaradorligini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi siyosatlarda bir nechtalab davlat organlarining vakolatli va mas'ul bo'lishligi bu sohaning qay darajada muhimligi va dolzarbligidan dalolat beruvchi belgilardan hisoblanadi.

Atrof-muhit bilan bog'liq bo'lgan ekologik muammolar nafaqat inson va boshqa tirik mavjudotlarning salomatligiga raxna solmoqda balki davlatlar va ular aholisining iqtisodiy holatini ham yomonlashtirmoqda. Shu sababli bugungi kunda barcha davlatlar jumladan iqtisodiyoti

rivojlanishning cho'qqisiga yetgan davlatlar ham atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga juda katta sarmoya qilishmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi PF-5863-sonli farmoni bilan “2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni himoya qilish konsepsiyasi” tasdiqlandi¹ Ushbu konsepsiya bilan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi mavjud muammolar aniqlanib, bu muammolarni samarali yechish uchun vazifa, usul va maqsadlar belgilandi va mavjud ushbu muammolar samarali hal etilganidan so'ng erishilishi kutilayotgan natijalar e'lon qilindi.

Asosiy qism

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvining huquqiy mexanizmlari — bu davlatning ekologiya sohasidagi siyosatini amalga oshirish, atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan huquqiy vositalar, usullar va institutlar tizimidir.

Huquqiy mexanizmning tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

- ✓ Huquqiy normalar (bu sohadagi davlat boshqaruvining huquqiy asosini belgilab beradi);
- ✓ Huquqiy munosabatlar (ushbu sohada vujudaga keladigan har qanday huquqiy munosabatlar);
- ✓ Huquqni qo'llash amaliyoti (ijro etuvchi organ va ularning vakolatli mansabdor shaxslari);
- ✓ Huquqiy javobgarlik.

Davlat boshqaruvining huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi qonun ushbu sohadagi boshqaruv faoliyatining asosiy huquqiy poydevorini tashkil etadi². Ushbu hujjatlar fuqarolarning sog'lom atrof-muhitda yashash huquqini kafolatlaydi va davlat organlariga ekologik muhofazani ta'minlash majburiyatini yuklaydi. Bundan tashqari “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida”gi³ qonun “Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi to'g'risida”gi nizom⁴, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida”gi qonun, ushbu sohadagi huquqbuzarliklarni oldini olish hamda huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini belgilaydigan normalar va shu kabi boshqa atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini tartibga solish maqsadida ishlab chiqilgan qonunchilik va qonunosti hujjatlari ham ushbu sohadagi huquqiy mexanizmlarning tarkibiy qismini tashkil etadi⁵.

Vakolatli davlat boshqaruvi organlari va ularning vakolatlari

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida boshqaruvni quyidagi organlar amalga oshiradi: O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat nazoratini hamda tarmoqlararo boshqaruvni amalga oshiruvchi, idoralardan ustun turuvchi va muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ hisoblanadi⁶. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlarni respublikaning barcha vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar ijro etishlari shart. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining qarorlari zarur hollarda O'zbekiston

¹ <https://lex.uz/docs/>

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, IX bobi.

³ <https://lex.uz/docs/-7397280#>

⁴ <https://lex.uz/ru/docs/-228905#>

⁵ <https://lex.uz/uz/docs/-55561#>

⁶ <https://lex.uz/ru/docs/-228905#>

Respublikasining boshqa vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralari bilan birgalikda yoki ular bilan kelishilgan holda qabul qilinadi⁷.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi – davlat siyosatini amalga oshiruvchi asosiy vakolatli organ hisoblanadi va bu organ o‘z vakolatlari doirasida boshqa vakolatli organlar faoliyatini muvofiqlashtirib boradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 18-noyabrdagi PF-217-son Farmoni bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Vazirlar Mahkamasi tizimidan chiqarilib, uning negizida Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi tashkil etildi. Shuningdek bu farmon bilan Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining vakolatlari doirasi kengaytirilib, Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi (Ekooplitsiya) tashkil etildi.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta‘sirni baholash va strategik ekologik baholash sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi. Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi ekologik ekspertiza masalasida davlat ekologik ekspertizasini tashkil etish va o‘tkazish, ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta‘sirni baholash va strategik ekologik baholash sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ekologik ekspertizaning yagona tizimini tashkil qiluvchi ixtisoslashtirilgan ekspert bo‘linmalari faoliyatini tashkil etish, ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta‘sirni baholash va strategik ekologik baholash bo‘yicha normativ-texnik va yo‘riqnoma-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda tasdiqlash, davlat ekologik ekspertizasi bo‘yicha ekspertlar kengashi tarkibini hamda uning nizomini tasdiqlash, davlat ekologik ekspertizasining xulosasida ko‘rsatilgan talablarning bajarilishi monitoringini olib borish, ekologik ekspertizaning ijobiy xulosasiga ega bo‘lmagan obyektlarga nisbatan moliyalashtirish, kreditlash operatsiyalarini va boshqa moliyaviy operatsiyalarni to‘xtatib turish (tugatish) to‘g‘risidagi taqdimnomalarni banklarga va boshqa kredit tashkilotlariga yuborish, ekologik ekspertiza xulosalarining bajarilishi ustidan ekologik nazoratni amalga oshirish kabi huquq va vakolatlarga ega hisoblanadi⁸

Mahalliy davlat hokimiyat organlari o‘z hududida tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, hududiy ekologik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishni ta‘minlash, tabiiy resurslarni hisobga olish va ularning ahvoriga baho berish, ekologiya jihatidan zararli bo‘lgan obyektlarni ro‘yxatga olish, tabiatni muhofaza qilishga doir tadbirlarni moddiy-texnika jihatidan ta‘minlash kabi vazifa va funksiyalarni amalga oshiradi.

Yuqoridagi ayrim maxsus vakolatli organlar, Ichki ishlar organlari, sud va prokuratura organlari ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni ta‘minlaydi. Masalan, Ichki ishlar organlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi organlari, Davlat yong‘in nazorati organlari, Davlat sanitariya nazorati organlari, Davlat veterinariya xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasining organlari, O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi organlari, Davlat o‘rmon xo‘jaligi organlari va boshqalar shular jumlasidandir⁹

Huquqiy mexanizmlarning asosiy yo‘nalishlari

⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-228905#>

⁸ “[Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta‘sirni baholash va strategik ekologik baholash to‘g‘risida](#)”gi qonunning 6-moddasi.

⁹ O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi XVIII bobi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishdagi huquqiy mexanizmlar quyidagi yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi:

1. Normativ-huquqiy tartibga solish mexanizmi – ekologiya sohasidagi normativ huquqiy hujjatlar orqali amalga oshiriladi.
2. Tashkiliy-boshqaruv mexanizmi – vakolatli organlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ekologik dasturlarni amalga oshirish.
3. Nazorat va javobgarlik mexanizmi – ekologik qonunbuzarliklar uchun fuqarolik, ma‘muriy va jinoiy javobgarlik belgilanishi.

Yaponiya atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida rivojlangan va samarali davlat boshqaruvi tizimiga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda ekologik siyosatni amalga oshirishning huquqiy asoslari, vakolatli organlar tizimi hamda jamoatchilik ishtirokini ta‘minlash mexanizmlari mukammal shakllantirilgan.

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINING HUQUQIY MEXANIZMLARI YAPONIYA TAJRIBASIDA

Yaponiyada atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvining asosiy huquqiy negizini 1993-yilda qabul qilingan “Basic Environment Law” tashkil etadi. Mazkur qonun ekologik siyosatning asosiy tamoyillarini, davlat organlari, mahalliy hokimiyatlar, tadbirkorlik subyektlari va fuqarolarning ekologik sohadagi majburiyatlarini belgilaydi. Shuningdek, qonunda barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va kelajak avlodlar manfaatlarini ta‘minlash prinsiplari mustahkamlangan¹⁰.

Vakolatli davlat organi

Yaponiyada ekologik boshqaruvning markaziy organi Ekologiya vazirligi (Ministry of the Environment) hisoblanadi. Vazirlik ekologik siyosatni ishlab chiqadi, ekologik monitoringni amalga oshiradi, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlaydi hamda boshqa davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtiradi. Mahalliy darajada prefekturalar va munitsipal organlar ekologik qonunchilik ijrosini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi¹¹.

Ekologik ekspertiza mexanizmi

Yaponiya tajribasining muhim jihatlaridan biri ekologik ekspertiza institutining rivojlanganligidir. 1997-yilda qabul qilingan Environmental Impact Assessment Act yirik investitsiya va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishdan oldin ularning atrof-muhitga ta‘sirini baholashni majburiy etib belgilagan. Mazkur tartib loyiha tashabbuskoridan ekologik ta‘silarni oldindan o‘rganish, prognozlash va baholashni talab qiladi. Jarayonga jamoatchilik, mahalliy hokimiyatlar va ekologik organlar ham jalb qilinadi¹².

Strategik rejalashtirish va monitoring

Yaponiyada ekologik boshqaruvning muhim vositalaridan biri — Asosiy ekologik reja (Basic Environment Plan) hisoblanadi. Ushbu hujjat uzoq muddatli ekologik maqsadlarni belgilaydi hamda davlat organlarining faoliyatini yagona strategik yo‘nalishda olib borishga xizmat qiladi. Rejada ekologik monitoring, ilmiy tadqiqotlar, ekologik ta‘lim va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan¹³. Yaponiya ekologik boshqaruvda faqat ma‘muriy usullardan emas, balki iqtisodiy vositalardan ham foydalanadi. Davlat ekologik toza texnologiyalarni qo‘llayotgan korxonalarini qo‘llab-quvvatlaydi, qayta ishlash tizimini

¹⁰ Ministry of the Environment, Government of Japan. *The Basic Environment Law*. Law No. 91 of 1993.

¹¹ <https://www.env.go.jp/en/laws/policy/basic/leaflet2.html>

¹² Ministry of the Environment, Government of Japan. *The Basic Environment Law and Basic Environment Plan*. https://www.env.go.jp/en/laws/policy/basic_ip.html

¹³ Ministry of the Environment, Government of Japan. *Laws: Environmental Policy*

rag‘batlantiradi va “ifloslantiruvchi to‘laydi” tamoyilini amaliyotga tatbiq etadi. Shu orqali ekologik zarar yetkazuvchi subyektlarning javobgarligi kuchaytiriladi¹⁴.

Yaponiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida samarali davlat boshqaruvi kuchli huquqiy baza, markazlashgan va mahalliy boshqaruv organlari o‘rtasidagi hamkorlik, ekologik ekspertiza tizimi, strategik rejalashtirish hamda iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlariga tayanadi. Ushbu tajriba O‘zbekistonda ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish va jamoat ekologik ekspertizasini rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ekologik boshqaruv tizimini raqamlashtirish, xalqaro ekologik standartlarni joriy etish, iqlim o‘zgarishiga moslashish strategiyalarini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhimdir:

- ekologik qonunchilikni xalqaro me‘yorlarga moslashtirish;
- ekologik nazorat tizimini mustahkamlash;
- jamoatchilik ishtirokini kengaytirish;
- ekologik ta‘lim va madaniyatni rivojlantirish.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvining huquqiy mexanizmlari ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda fuqarolarning sog‘lom va qulay atrof-muhitga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarini ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida ushbu sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza shakllantirilgan bo‘lib, davlat organlarining vakolatlari, ekologik nazorat, ekologik ekspertiza va javobgarlik institutlari orqali ekologik siyosat amalga oshirilmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekologiya sohasida davlat boshqaruvining samaradorligi vakolatli organlar faoliyatining o‘zaro muvofiqlashtirilganligi, qonunchilikning izchilligi va ekologik nazorat mexanizmlarining ta‘sirchanligiga bevosita bog‘liqdir. Shu bilan birga, iqlim o‘zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslar tanqisligi kabi zamonaviy ekologik tahdidlar mavjud huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Yaponiya tajribasi ekologik boshqaruvning samarali modeli sifatida alohida e‘tiborga loyiq bo‘lib, unda ekologik siyosatning aniq huquqiy asoslari, strategik rejalashtirish, ekologik ekspertiza institutining rivojlanganligi hamda jamoatchilik ishtirokining yuqori darajada ta‘minlanganligi muhim o‘rin tutadi. Mazkur tajribadan foydalanish O‘zbekistonda ekologik boshqaruv tizimini yanada modernizatsiya qilish, ekologik ekspertiza va nazorat institutlarini kuchaytirish hamda ekologik qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolik jamiyati ishtirokini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan ekologik qonunchilikni xalqaro standartlarga uyg‘unlashtirish, raqamli ekologik boshqaruv tizimlarini joriy etish, ekologik nazoratning institutsional asoslarini mustahkamlash va aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolishi lozim. Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va kelajak avlodlar uchun sog‘lom tabiiy muhitni saqlab qolishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993.

¹⁴ United Nations Environment Programme (UNEP)

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholash to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2021.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1996.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF–5863-son Farmoni “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.
6. Yuldashev J.T., Rustambekov I.R. Ekologiya huquqi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2022.
7. Muxitdinov N.B. O‘zbekiston Respublikasida ekologik boshqaruvning huquqiy asoslari. – Toshkent: Adolat, 2021.
8. Kolbasov O.S. Экологическое право России. – Москва: Юристъ, 2019.
9. Bogolyubov S.A. Экологическое право. – Москва: Норма, 2022.
10. Brinchuk M.M. Экологическое право. – Москва: Юрайт, 2023.
11. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – <https://lex.uz>
12. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi rasmiy sayti – <https://eco.gov.uz>
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari bazasi – <https://president.uz>
14. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali – <https://gov.uz>
15. Yaponiya Ekologiya vazirligi (Ministry of the Environment, Japan) – <https://www.env.go.jp>
16. United Nations Environment Programme (UNEP) – <https://www.unep.org>
17. UNEP Law and Environment Assistance Platform (LEAP) – <https://leap.unep.org>
18. United Nations Development Programme (UNDP) – <https://www.undp.org>
19. The World Bank Environment Portal – <https://www.worldbank.org>
20. Google Scholar ilmiy qidiruv tizimi – <https://scholar.google.com>
21. Muxitdinov N.B. O‘zbekistonda ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari // TDYU Axborotnomasi. – 2023. – № 2. – B. 45–53.
22. Akimoto K. Environmental Governance in Japan: Legal Framework and Administrative Mechanisms // Journal of Environmental Policy. – 2024. – Vol. 18. – P. 15–
23. Muxitdinov N.B. O‘zbekistonda ekologik boshqaruv tizimini takomillashtirish masalalari
24. Environmental Impact Assessment in Japan: Current Trends and Challenges // Environmental Law Review. – 2023. – Vol. 25. – P. 78–95.
25. Public Participation in Environmental Decision-Making in Japan // Journal of Environmental Management. – 2023. – Vol. 29. – P. 61–75.